

7-10-2019

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF GARDENING

Manzura Juraevna Makhmudova

Namangan State University Associate Professor, Department of Geography

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Makhmudova, Manzura Juraevna (2019) "HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF GARDENING," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 47.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/47>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF GARDENING

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Maxmudova Manzura Juraevna
Namangan Davlat Universiteti
Geografiya kafedrasida dotsenti

Anotatsiya: Uzoq davrlar davomida aholini katta va mashshaqqatli mehnati tufayli mevalarning hilma-hil navlarni yaratganlar va avlodan-avlodga berib kelgan

Tayanchso'zlar: bog'dorchilik mevali navlari, uzum tarkibi, xushbuy moddalar, vitaminlar yetishmasligi, minerallar mikroelementlar mevalar, uzum qoqilar mayiz, turshak, ovvoyo mevachilik

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF GARDENING

Makhmudova Manzura Juraevna
Namangan State University
Associate Professor, Department of Geography

Abstract: During the long periods of time, the people created and distributed varieties because of their great and diligent work.

Key words: Horticulture fruit varieties, grape content, fragrant substances, vitamins Minerals minimulaceous fruits, grape roots, raisins, turquoise, fruiting

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ САДОВОДСТВА

Махмудова Манзура Джураевна
Наманганский государственный университет
Доцент кафедры географии

Аннотация: В течение длительных периодов времени люди создавали и распространяли сорта из-за их большой и усердной работы.

Ключевые слова: садоводство, сорта плодов, виноградный состав, душистые вещества, витамины, минералы, минимулезные плоды, виноградные корни, изюм, бирюза, плодоношение.

O'zbekiston yerlarida meva daraxtlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar millod.av.1-ming yillik o'rtalariga oid yunon, xitoy, rim manbalarida uchraydi. Asrlar davomida xalq selektsiyasi asosida o'rik,olma ,yong'oq, bodom shaftoli,anor, tut hamda tokning juda sarhil mevali navlari yaratilgan.Ushbu mevalarning sifati jihatdan jahon kolleksiyasida o'zining takrorlanmas o'rniga ega.

Mevali o'simliklar tarkibida asosan fruktoza,mineral moddalar,vitaminlar ko'p bo'lib inson hayotida modda almashinuvni yaxshilash bilan birgalikda muhim kuch

quvvat manbai bo'lib hisoblanadi. Shuningdek meva, uzum tarkibidagi xilma-hil ta'm va xushbuy moddalar ovqat xazm bo'lish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki aholini haqiqiy ovqatlanish va vitaminlar bilan ta'minlashda, aholini kundalik ovqatlanish jarayonida ayniqsa qish va bahor oylarida A, B, B₁, C vitaminlari yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Inson hayotida meva muhim ahamiyatga ega bo'lib, minerallarga, vitamin va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojini turli hil mevalar, qoqilar va sabzavot mahsulotlari hisobiga qondiradi.

Qadimdan aholi qo'rg'onlari atroflarida alohida hududlarda aholining bog'lari va chorbog'larida mevalar, tokni, turli mahalliy navlari ekib kelingan. Mevalarni yetishtirishda dehqonlar erta bahordan kech ko'zga qadar bog'larda mavsumiy yashab meva yetishtirganlar. Mevalarni asosiy qismini qoqi qilib quritilgan. Turshak mayiz, jiyda, shaftoli, olma qoqilar aholi uchun asrlar davomida qand shakarining o'rnini bosib kelgan.

Bizga ma'lumki bog'dorchilik va uzumchilik qishloq xo'jaligida eng qadimiy sohalaridan hisoblanadi. Dastlab II-I minginchi yillar yovvoyi mevachilik, III-II asrlarda dastlabki madaniylashgan mevachilikni rivojlanishi bilan, VIII-IX asrlar iste'mol xarakteridagi bog'dorchilik rivojlandi va iqtisodiy aloqalarda quruq mevalar bilan savdo-sotiq qilishning kuchayishiga olib keldi.

Mamlakatimizda bog'dorchilik va uzumchilikning tarixini biz juda ko'plab manbalarda o'qishimiz mumkin xatto miloddan avvalgi V-asrga doir bo'lgan asarlarda ham mevachilik haqida ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Mamlakatlar aro aloqalarda savdo-sotiq rivojlanishi bilan meva va uzum mahsulotlari tovar darajasida qiymatga ega bo'ldi.

Temuriylar davrida Samarqand juda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga hos bog'lar bilan qurshab olingan bo'lib hozirga qadar saqlanib kelmoqda, ular, Bog'i-Dilkusho, Bog'i-Bexisht, Bog'i-Baland, Bog'i-Zog'on, Bog'i-Chinor, Bog'i-Shamol va xokozolar.

Namangan viloyatining Norin tumani hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar davrida (A.N. Bernishtam ma'lumotlariga ko'ra) don va o'rik danagini topilishi quyi poleolit, hatto bronza davrining boshlarida yoki eradan avvalgi VI-IV minginchi yillarda aholi donli ekinlar yetishtirganliklaridan va mevali daraxtlarni turli navlari, mevalar bilan tanish bo'lganliklaridan dalolat beradi, bu davrda asosan yovvoyi mevazorlar va uzumzorlardan aholi termachlik asosida foydalangani sug'orma dehqonchilik keng yoyilgani haqida ma'lumotlar beradi.

Eramizning I-IV asrlarida Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'I o'tishi bilan vodiya xilma-hil meva daraxtlarini olib kelingan. Bu yerlarda yashayotgan aholini katta mehnati bilan mevali daraxtlarning turli navlari yaratila boshlangan.

Shuningdek, VIII asr oxiri IX asr boshlarida Farg'ona arablar tomonidan istilo qilinishi bilan Eron va Arabiston yarim orolidan ham turli meva va uzum navlari kirib kelgan.

X asrdan boshlab vodiyni Volga bo'yi, Sharqiy Yevropa xalqlari bilan savdo-sotiq aloqalarida quritilgan mevalar, yong'oq, bodom va boshqalar muhim o'rin to'tgan.

XV asrdan boshlab bog'dorchilikni rivojlanishida o'ziga hos davr boshlangan desa bo'ladi, bu davrni Bobur ham hatto o'zining «Boburnoma» asarida juda chiroyli va asosli ta'riflagan edi. Asarda yozishicha «Farg'ona vodiysi beshinchi iqlimdandir.....Etti pora qasabasi bo: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Sayxun suyini Oliy tarafidagi qasabalar : bir Axsidur...Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav' qovundirkim «Mir Temuriy» derlar, andoq qovun ma'lum emaskim olamda bo'lgay....Yana bir Kosondur Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadir. Nechunkim Andijon suyi Ushdin kelur.Axsi suyi Kosondin kelur.Yaxshi havoliq yerdur. Safoliq bog'chalari bor Vale safoliq bog'chalari tamom soy yoqasida voqe bo'lg'on uchun «pustini pesh berra» depturlar ^[1] “deb. Farg'ona vodiysining tabiati, suvlari unda yetishtirgan mazali mevalari va qovunlariga ta'rif bergan bu esa bog'dorchilik sohasida tarihdan ham katta yutuqlar qo'lga kiritilganidan dalolat beradi.

Turkistonni Rossiya mustamlakaga aylantirilishi natijasida bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlanishida ikki bosqichni ko'zlash mumkin. Birinchi bosqichda bog'dorchilik va uzumchilik birmuncha rivojlandi va eksport yunalishiga ega bo'ldi. Ikkinchi bosqich ya'ni Rossiyada sanoatning rivojlanishi va kengayishi munosabati bilan ekin maydonlari tarkibida paxta maydoni salmog'i ortib bordi .Natijada bog'dorchilik va uzumchilik maydonlari asta sekin qisqartirildi. Birgina Farg'ona vodiysida 70% boglar maydoni qisqarib ketdi. Bu hol Rossiyaning Farg'ona vodiysidan tashqari mamlakatlar Eron va Xitoy kabilardan ham quruq mevalarni import qilinishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ayni vaqtda Farg'ona vodiysidagi mavjud bog'larida ixtisoslashgan hududlar shakllana boshladi bu jarayon bugungi bog'dorchilik, uzumchilikni ixtisoslashuv jarayoni uchun ham zamin bo'ldi va juda katta ta'sir ko'rsatdi.Chunonchi anor asosan Namangan, Quva, Andijon uездlarida, anjir Namangan, Andijon, OltiAriq, o'rik Qo'qon uездlarida ko'p tarqalgan edi.Hozirgi kunda ham ixtisoslashuv jarayoni kehgayib intensiv bog'larni shakllanishida turtki bo'lmoqda.

Tadqiqotlar natijasidan ko'rish mumkinki XX asrning boshlarida o'ziga hos bo'lgan ixtisoslashgan mintaqalar Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida bog'dorchilik rivojlanganligi bilan ajralib turadi.Farg'ona vodiysi bog'dorchiligini 50 foizi Namanganda tuplangan .

Mamlakatimizda 1920-1930 yillar boglarni tiklash, yangilarini barpo etish xarakati boshlangani bilan xarakterlanadi, viloyat va tumanlarda bogdorchilikka bo'lgan e'tibor kuchaydi natijada dastlabki ixtisoslashgan bogdorchilik xo'jaliklari barpo etildi.Shu davrda ham Farg'ona vodiysi Rossiyaga asosiy quruq mevalar yetkazib beruvchi region bo'lgan.

40-50 yillari dastlabki ixtisoslashgan bog'dorchilik xo'jaliklarini tuzilishi agrosanoat integratsiyasi asosida (kolxoz-zavod va sovxoz-zavodlari) yuzaga keldi.1970 yilga kelin ixtisoslashgan xo'jaliklar kengaydi, agrosanoat birlashmalari vujudga keldi. 90 yillar ixtisoslashgan bog'dorchilik va uzumchilik tovar zonalarini yuzaga kelishi bilan soha rivojlandi.

Mamlakatimiz mustaqillika erishganidan keyin ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi ushbu sohani o'ziga hos bo'lgan tarixiy rivojlanishini va ahamiyatini istiqbolli tarzda o'zgartirdi.

Uzoq tarixiy davrlar davomida aholini katta va mashshaqqatli mehnati tufayli xilma-hil meva navlari yaratilgan va avlodan-avlodga o'tib kelgan Urug'chilikda yaratilgan mevalarning tashqi ko'rinishi chiroyliligi ,ta'mi juda shirinligi quritilganda yuqori sifatli ekanligi bilan ajralib turadi.Ayniqsa o'rikning isfarak, xurmoyi, subhoni, qandak shuningdek hilama-hil anor, bodom,anjir kabilarni serhosil navlarini dovrug'i qadimdayoq butun dunyoga tarqalgan.

Sobiq tuzum davrida Farg'ona vodiysida bog'lar tarkibi kengaygan bo'lsada, qishloq xo'jaligi korxonalaridagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy omillar va tarkib topgan agroiklimiy sharoitlar bog'dorchilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lishiga qaramay, bu tarmoq juda sekinlik bilan rivojlangan unumdorlik past bo'lgan va ikkinchi soha sifatida qaralishi oqibatida o'zgarmay qolavergan. O'sha davrlarda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar o'rniga yetarli e'tibor bermaslik hamda, aholiga shaxsiy yer uchastkalarini berishni juda qisqarib ketishi, ham bog'dorchilik sohasiga katta iqtisodiy zarar keltirdi, ko'pgina bog'lar paxta maydonlarini kengaytirish bahonasida qisqartirildi xatto tugatilib yuborilgan edi^[3].

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysida uzoq tarixga ega bo'lgan bog'dorchilikda o'zining avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy ananalariga ega bo'lib, mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan tub o'zgarishlar qilindi, oilalarga yer berish, tomorqa xo'jaliklarini kengaytirish, fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish, amaliy tadbirlarni olib borishda, islohotlarni amalga oshirilmoqda, natijada bog'dorchilik maydonlarini kengaytirish, xosildorlikni oshirish, aholini mevaga bo'lgan, sanoatni xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlashda katta samaradorlikka erishilmoqda.

References:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent 1989 y. 81 b.
2. Soliev A.S Hududiy muammolarning nazariy asoslari. T; Universitet, 2007.91. b
3. Abdullaev.O.Namangan viloyati (tabiati,aholisi,xo'jaligi). Namangan. "Namangan" nashriyoti,1995,70 b.
4. Namangan viloyatida 2018 yil yakuni bilan iqtisodiy islohotlarni borishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy Axboroti.Namangan.14.12.2018.www.namangan.uz